



## ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA QO‘LLANILGAN ZOONIMLAR VA ULARNING TAHLILI

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*Markaziy Osiyo xalqlari tillari va*

*madaniyati instituti, 2-bosqich talabasi*

*Azamatova Sevinch Shuxrat qizi*

*Ilmiy rahbar: Yusupova O*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy g‘azallarida uchraydigan zoonimlar, ularning badiiy ma’no yuklamasi hamda poetik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari va ular orqali yaratilgan obrazlar tizimi va shoirning poetik dunyoqarashidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, zoonimlarning ramziy ma’nolari, ularning tasviri vosita sifatida qo‘llanishi va muayyan g‘azal kontekstida mazmunini kuchaytirishdagi vazifalari izohlanadi. Maqola Navoiy poetikasining tasviriy imkoniyatlarini kengroq anglashga, shoir asarlaridagi zoologik leksikaning badiiy-estetik ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy g‘azallari, zoonimlar, ramz, obraz, badiiy tasvir, leksik-semantik tahlil.

**Annotation.** This article analyzes the zoonyms found in Alisher Navoi’s ghazals, their artistic and semantic load and poetic functions. The study sheds light on the lexical and semantic properties of zoonyms, the system of images created through them, and their place worldview on a scientific basis. It also explains the symbolic meanings of zoonyms, their use as a figurative means, and their function in enhancing the content in the context of a particular ghazal. The article serves to broaden the understanding of the figurative possibilities of Navoi’s poetics and to



reveal the artistic and aesthetic significance of zoological lexicon in the poet's works.

**Key words:** Alisher Navoi's ghazals, zoonyms, artistic imagery, symbol, poetic device, poetics, lexical-semantic analysis.

**Аннотация.** В статье анализируются зоонимы, встречающиеся в газелях Алишера Навои, их художественно-семантическая нагрузка и поэтические функции. Исследование на научной основе раскрывает лексико-семантические свойства зоонимов, создаваемую ими систему образов и их место в поэтическом мировоззрении поэта. Также раскрываются символические значения зоонимов, их использование в качестве образного средства и их содержательная функция в рамках конкретной газели. Статья призвана расширить представление об образных возможностях поэтики Навои и раскрыть художественно-эстетическую значимость зоологической лексики в творчестве поэта.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газель, зооним, художественный образ, символ, поэтическое средство, поэтика, лексико-семантический анализ.

## KIRISH

Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotning shakllanishi va yuksalishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, uning g'azallarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari turli semantik qatlamlari bilan ajralib turadi. Ana shunday tasviriy unsurlardan biri – zoonimlar, ya'ni hayvon nomlari orqali yaratilgan obrazlar tizimi bo'lib, ular shoirning poetik uslubini boyitadigan muhim leksik birliklar hisoblanadi. Navoiy o'z g'azallarida zoonimlarni nafaqat real mavjudot sifatida, balki ramziy, majoziy va metaforik ma'no kasb etuvchi san'at vositasi sifatida mahorat bilan qo'llagan.

Professor Bahrom Bafoyev XV asr mutafakkiri Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan 76 ta chorva mollari, yovvoyi yirik shoxli hayvonlar, 71 ta chorvachilikka oid, 94 ta qush nomi, 41 ta kelib chiqishi o'zbek, tojik va arab tillari bilan bog'liq bo'lgan mayda hayvon nomlari, 7 ta suvda yashovchi hayvon



nomlarini bildirish uchun qo‘llangan so‘z-ismlarini aniqlaydi [1,57]. Shuningdek, B.P.Zaripovning nomzodlik ishida Alisher Navoiy asarlaridagi badiiy san’atlarda qo‘llangan zoonimlarning lisoniy-uslubiy xususiyatlari va badiiy matn poetik qurilishidagi semantik funksiyalari monografik jihatdan tadqiq etilgan. Navoiy ijodida badiiy san’atlarni hosil qilishda 337 ta zoonim qo‘llangani haqida ma’lumot berilgan. Ulardan 117 tasi chorva mollari, 97 tasi qush nomlari, 9 tasi sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari, 48 tasi yovvoyi hayvon nomlari, 41 tasi hasharot va boshqa mayda jonivorlar, 6 tasi suv hayvonlari, 12 tasi afsonaviy jonzotlar nomi ekanligi qayd etilgan [2,11].

### METODOLOGIYA

Alisher Navoiy lirikasida tabiat, jonajon borliq unsurlari, jumladan, zoonimlar alohida badiiy-estetik vazifani bajaradi. Shoir hayvon nomlarini bevosita zoologik ma’noda ishlatmay, balki ularning ramziy-shuaroona mazmun bilan boyitadi. “*Ne navo soz aylagay...*” deb boshlanuvchi g‘azalida uch zoonim – bulbul, to‘ti va it obrazlari oshiqning ruhiy olamini ochishda markaziy o‘rin egallaydi. G‘azalning matla va maqtasida ushbu uch obraz keltirilgan:

**Matla:** *Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,*

*Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.*

**Maqta:** *Bu egasiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,*

*Bo‘lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo [3].*

G‘azalning ilk baytidayoq uchraydigan bulbul obrazi Sharq mumtoz she’riyatida oshiqlik, nola, hijron va ishqiy iztirobning an’anaviy timsolidir. Navoiy: “*Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo...*” – deya bulbulning gulistondan ayrilishi orqali oshiqning ma’shuqadan judo bo‘lgan fojiali ruhiy holatini tasvirlaydi. Bu yerda guliston – ma’shuqa jamoli timsoli bo‘lsa, bulbul – oshiq qalbining musavvir obrazidir. Shoir bulbulning ovozi, nolasi va doimiy iztirob holatini bevosita o‘z qalb kechinmalariga ko‘chiradi. Demak, bulbul zoonimi g‘azalning lirizm darajasini oshiruvchi asosiy poetik vosita sifatida xizmat qiladi.



Gʻazalning keyingi misrasida *“Aylamas toʻti takallum shakkaristondin judo”* – bu misrada toʻti obrazi keltirilgan boʻlib, toʻti mumtoz adabiyotda shirin soʻz, latofat, ravon nutq timsoli sifatida qoʻllanilgan. Ushbu misrada toʻti shakkaristondan ayrilsa, shirin nutq qilolmaydi degan maʼno kelib chiqadi. Bu tashbeh orqali Navoiy oshiqning maʼshuqadan ayrilishi natijasida uning soʻzlarida shirinlik, ruhda esa lazzat qolmasligini taʼkidlagan. Toʻti obrazi bu gʻazalda bulbulga qaraganda boshqacharoq vazifani bajarmoqda. Bulbulning nolasida iztirob kuchli boʻlsa, toʻtining shakkaristondan judo boʻlishi shirinlikni yoʻqotish, ruhiy lazzatning soʻnishini koʻrsatadi. Demak, bu zoonim oshiqning ruhiy quvvati va nutqning manbayiga ishora qiladi.

Maqtada shoir nihoyatda kuchli tashbehni qoʻllaydi. *“Bu egasiz it boʻlub erdi Navoiy yorsiz, Boʻlmasun yo rabki, hargiz banda sultondin judo”* misradagi it zoonimi orqali tasavvufiy-maʼrifiy kontekstda ishlatilgan. It – bandalik, sadoqat, egasiga tobelik ramzi boʻlib, mumtoz sheʼriyatda koʻpincha oshiqning oʻzini past tutishi, taslim boʻlishi, maʼshuqa oldidagi ojizlikni ifodalash uchun qoʻllanadi. *“Egasiz it”* iborasi esa oshiqning ruhiy nochorligi, yorsiz qolgan insonning maʼnan vayron holatini kuchli drammatizm bilan aks ettiradi. Navoiy oʻzini *“egasiz it”* deb atashi – kamtarlikning yuqori choʻqqisi, oshiqning maʼshuqa oldida mutlaq taslim boʻlganini ifodalovchi ruhiy holatdir. Shu bilan birga, bu obraz gʻazalning hissiy-ohangdor yakunini hosil qiladi. Ushbu gʻazalda Navoiy bulbul, toʻti va it zoonimlari orqali oʻzining ishqiy-falsafiy qarashlarini badiiy pardoz bilan ifoda etadi. Bu zoonimlarning qoʻllanishi gʻazalning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga, oshiq ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Zoonimlarning har biri alohida poetik yuklamaga ega boʻlib, ular birgalikda gʻazalning hissiy kuchi va drammatizmini yanada yuksaltiradi.

Alisher Navoiyning yana bir gʻazalida bulbul zoonimini uchratishimiz va u boshqa ramziy maʼnoda qoʻllanilganini koʻrishimiz mumkin:

*Qoʻnub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin gʻulgʻul,*



*Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam [4].*

Tahlil ostiga olingan yuqoridagi misralar Navoiy lirikasida tabiat manzarasi, oshiq-ma'shuq munosabati va ruhiy kechinmalar uyg'unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur baytda bulbul, sarv, gul va shabnam obrazlari o'zaro poetik uyg'unlikda qo'llanib, Navoiy she'riyatiga xos ramziy-tasviriy tizimni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, bulbul zoonimi mazkur markazlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan bulbul zoonimi quyidagi jihatlar bilan talqin qilinadi:

- **Semantik funksiya:** *"Gul shavqidin"* birikmasi bulbulning sayrashiga sabab bo'lgan manbani ko'rsatadi: bu – go'zallikdan tug'ilgan zavq va hayajon. Bulbulning gul atrofidagi holati oshiqning yor jamoliga mahliyo bo'lishi, uning go'zalligidan ruhiy quvvat olishini anglatadi. Bu orqali bulbul zoonimi bahor, go'zallik, hayotiylik, uyg'onish semalarini yuzaga chiqaradi.
- **Poetik funksiya:** aytda bulbul obrazining qo'llanishi g'azalning poetik ohangini kuchaytiradi, matnga musiqiylik, harakatchanlik va jonlilik bag'ishlaydi. Bulbul sarvga *"qo'nib"* va *"g'ulg'ul chekib"* tasvirlanar ekan, sahnada kinoya tarzida jonli harakat paydo bo'ladi. Bu esa g'azalning tasviriy-estetik kuchini oshiradi. Zoonimning qo'llanishi orqali oshiqning ichki holati tashqi manzaraga ko'chiriladi va psixologik parallelizm yuzaga keladi.
- **Ramziy funksiya :** Sharq mumtoz she'riyatida bulbul an'anaviy ravishda oshiqlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Navoiy ham bulbul obrazini aynan shu ma'noda qo'llab, oshiqning ma'shuqa atrofida parvona bo'lishi, uning husniga oshufta holati va ruhiy iztiroblarini jonli tasvirlaydi. Misradagi *"g'ulg'ul"* leksemasi bulbulning sayrash bilan birga oshiqning hayajonli nola va iztirobini ifodalaydi.



## XULOSA

Alisher Navoiy gʻazallarida zoonimlar – yaʼni hayvon nomlari faqat oddiy atama sifatida emas, balki poetik va ramziy vosita sifatida keng qoʻllanilgan. Yuqorida tahlil qilingan zoonimlar misralarda inson his-tuygʻular, tabiat goʻzalligi, sevgi ramzi sifatida namoyon boʻldi. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, Navoiy zoonimlardan obraziy va estetik funksiyani mustahkamlash, sheʼriy ohangni boyitish va falsafiy maʼno yaratish uchun foydalanadi. Shu tariqa gʻazallarning zoonimlar matnga nafaqat vizual va audial rang-baranglik beradi, balki adabiy tafakkur va maʼnaviy boylikni oshiruvchi vosita ham xizmat qiladi. Shunday qilib, Navoiy ijodida zoonimlar sheʼriyatning ramziy tilini boyituvchi, tabiat va inson dunyosini uygʻunlashtiruvchi muhim element sifatida qoraladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Бафоев.Б. История древних слов (на узб . яз). – Toshkent: Fan, 1991. – 368bet.
2. Zaripov B. Zoonimlarning badiiy sanʼat turlarini hosil qilishdagi ishtiroki (Alisher Navoiy asarlari asosida). Fil.fan.nom...diss. – Toshkent, 2002. –215 bet.
3. Manba: <https://tafakkur.uz>
4. Manba: <https://adiblar.uz>
5. Sirojiddinov.Sh, Yusupova.D, Davlatova.O. Navoiyshunoslik (1-kitob).Darslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018. –520 bet.